



O‘YIN ORQALI BOLA TAFAKKURI VA NUTQINI O‘STIRISH

Sidiqova Yulduz Sobirovna,

Osiyo Xalqaro universiteti

“Pedagogika va psixologiya” kafedrasi o‘qituvchisi

+998914164032

yulduzsobirova048@jmail.com

Аннотация: Mazkur maqolada bola tafakkurini va nutqini o‘stirishda o‘yinlarning ahamiyati, o‘yinlarning mohiyati, bolalarning ijodiy rivojlanishining eng muhim omillaridan biri bo‘lib, bu ularning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishda tarbiyachining roli haqidagi fikrlar tahlil qilingan.

Калит сўз: Tafakkur, nutq, faol nutq, rolli o‘yin, ijodiy rivojlanish, sahnalashtiriladigan o‘yinlar.

Перспективы развития туризма в Стратегии действий

Сидикова Юлдуз Собировна,

Азиатский международный университет

Преподаватель кафедры «Педагогика и психология»

+998914164032

yulduzsobirova048@jmail.com

Аннотация: В данной статье анализируется значение игр в развитии мышления и речи детей, сущность игр, одного из важнейших факторов творческого развития детей, а также роль воспитателей в создании благоприятных условий для формирования их творческих способностей.

Ключевые слова: Мышление, речь, активная речь, ролевая игра, творческое развитие, постановочные игры.



Tourism Development Prospects in the Action Strategy

Sidikova Yulduz Sobirovna

Asian International University

Lecturer at the Department of Pedagogy and Psychology

+998914164032

starzsobirova048@jmail.com

Annotation: This article analyzes the importance of games in the development of children's thinking and speech, the essence of games, one of the most important factors in the creative development of children, as well as the role of educators in creating favorable conditions for the formation of their creative abilities.

Keywords: Thinking, speech, active speech, role-playing game, creative development, staged games.

Bugungi kunga kelib maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni nafaqat ijodiy rivojlantirish, balki maktabgacha ta'limning barcha subektlari bilan aloqa va o'zaro munosabat usullarini o'zgartirish zarurati yuzaga keldi. Mana shuni hisobga olgan holda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning tafakkuri va nutqini o'stirish ham yangicha yondashuvni talab qiladi. Bu esa bolalarda ijodiy qobiliyatlarni namoyon bo'lishida muhim ahamiyat kasb etadi. Birinchidan, ijodiy faoliyat bolaning individualligini rivojlantirishni rag'batlantiradi, o'zini namoyon qilish imkoniyatini beradi, o'ziga va atrofdagi dunyoga ijobiy munosabatni shakllantiradi. Ikkinchidan, bugungi tez o'zgarayotgan dunyoda ijodkorlik zarur. Bu esa, bir tomondan, insonga ushbu o'zgarishlarga osonroq moslashishga imkon beradi, boshqa tomondan, bolalar bu dunyoni faol ravishda o'zgartirishlariga imkon beradi. Bugungi kunda MTT tarbiyachilarining eng ustuvor vazifalaridan biri "Ijodkor bolani" tarbiyalashdir. Bu jarayon qanchalik erta boshlansa samarasi shunchalik barvaqt namoyon bo'ladi va bolaning butun hayotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.



Bolalarning tasavvurini rivojlantirish uchun maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy faoliyati bo'lgan o'yin katta ahamiyatga ega. Aynan o'yinda bola ijodiy faoliyatning dastlabki qadamlarini qo'yadi. Kattalar nafaqat bolalar o'yinini tomosha qilishlari, balki uning rivojlanishini boshqarishlari, boyitishlari, o'yinga ijodiy elementlarni kiritishlari kerak. O'yin bolaning ichki ijtimoiy dunyosi va borliqni o'zlashtirish vositasi sifatida quyidagi vazifalarni bajaradi:

- 1)Maftunkorlik
- 2)Muloqotchanlik
- 3)O'z imkoniyatlarini amalga oshirish
- 4)Tashxis
- 5)O'yin ishtirokchilari o'rtasidagi muloqot
- 6) Ijtimoiylashuv

O'yinlar orqali bolalarda o'z menini baholash, o'z xatti-harakatlariga baho berish, gender mansubligini anglash (o'g'il va qiz bolalarga xos xususiyatlar, milliy urf- odatlar, ijobiy va salbiy his tuyg'ular, yaxshi va yomon xulqlarni farqlovchi o'yinlar) shakllanadi.O'yin bolalar munosabatlarini shakllantirish, odob-axloq qoidalarini o'rganish hamda kechinmalar bilan ulashish, muzokaralar o'tkazish va guruhning bir qismi bo'lish imkonini beradi.¹ O'yinlar jarayonida bolalar o'zlarining va o'zgalarning hissiyotlarini anglaydilar. Kattalar va tengdoshlar bilan muloqotda esa turli murakkab vaziyatlardan chiqishning amaliy yo'llarini, muammoli holatlarda o'zini tutish va muammoni oson hal qilish rivojlanadi. Bolalarni ahillashtiruvchi, jamoaga uyushtiruvchi , rivojlantiruvchi o'yinlarni tanlash orqali tarbiyachi bolalarda nutqni va tafakkurni ham rivojlantiradi. Aynan o'yinlar bolalarning ijtimoiylashishiga yordam beruvchi omil bo'lib hisoblanadi.

¹. O'yin orqali ta'lim olish. Shin A.V., Mirziyoyeva Sh.Sh., Grosheva I.V, T.2020



Turli yosh guruhlarda maishiy mazmundagi syujetli-rolli o'yinlarni tanlash bolalarda hayot haqidagi tushunchalarni boyitish bilan birga nutqni rivojlantiradi. Maishiy mazmundagi syujetli-rolli o'yinlarni "Oilamiz do'sti", "Do'stlarim mening uyimda", "Bayramlar", "Tug'ilgan kun", "Sayrga chiqamiz", "Bog'chamagi do'stlarim", "Dam oilsh kuni", "Hashar", "Tushlik", "Mehmon kutamiz" kabi mavzular bo'yicha o'yinlarni tanlash bolalarda katta qiziqish uyg'otish bilan birga nutqning tovush madaniyatini, gramatik qurilishini o'z fikrini ifodalashni tarbiyalaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish murakkab psixologik jarayon bo'lib hisoblanadi. Bu jarayonda bolaning muloqot faoliyatini rivojlantirish va birinchi navbatda muloqotga ehtiyoj mavjudligi bilan bog'liqdir. Muloqotga bo'lgan ehtiyoj, narsa buyumlardan foydalanish boladan faol nutqqa ega bo'lishni talab qiladi. Katta guruh yoshidagi bolalar bilan olib boriladigan o'yinli jarayonda "Topchi nima yetishmayapti", "Siz nima qilishni xoxlaysiz" turkumidagi savol va muammoli vaziyatlarni yaratish, bu vazifalarni hal etishda bola bilan og'zaki muloqotni ta'minlashi lozim.

Ta'lim tarbiyada shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, shuningdek, pedagog va bola o'rtasidagi yaqin munosabatni, har bir bolaning shaxsiy xususiyatlarini, hurmat qilishni va unga do'stona e'tiborni o'z ichiga oladi². Bolalarning ijodiy rivojlanishining eng muhim omillaridan biri bu ularning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishdir. To'rt-besh yoshda rolli o'yin shakllana boshlaydi, bu tasavvur va ijodkorlikni rivojlantirish uchun eng keng imkoniyatlarni beradi. Syujetli rolli o'yinlarni tashkil qilishda tarbiyachining roli juda katta. Rolli o'yinlarni tashkil qilar ekan tarbiyachi bolalarga o'yin mohiyatini tushuntiradi bolalarning fikrlari bilan ham o'rtoqlashishi zarur, ana shundagina bolalarda ijodiy fikrlash, mantiqiy yondashish, muammoga yechim topish, fantaziya rivojlanadi. Agar bolalar har kuni bir xil "mehmom- mehmon" yoki "urush" o'ynashsa,

². Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida ta'lim jarayonini rejalashtirish. Shin A.V., Mirziyoyeva Sh.Sh., Grosheva I.V., T.2020.



tarbiyachi ularga o'yinlarning syujetlarini yangilashga yordam berishi kerak. Tarbiyachi ular bilan o'ynashi mumkin, turli rollarni o'ynashni taklif qilishi mumkin. Bola birinchi navbatda o'yinda o'zining ijodiy tashabbusini ko'rsatishi, o'yinni rejalashtirishi va boshqarishi kerak. Tarbiachi esa uning tashabbuslarini rag'batlantirishi, fikrlarini hurmat qilgan holda tavsiyalar berishi kerak. «Ijodkorlik» sohasidagi o'quv-tarbiyaviy faoliyat yakuniga etganidan so'ng 6-7 yoshli bola:

- 1) san'at va madaniyatga qiziqish namoyon qiladi;
- 2) milliy an'analarni qadrlaydi va ularni kundalik hayotning bir qismi sifatida idrok etadi;
- 3) san'atning muayyan turini afzal ko'rishini mustaqil ravishda ifodalaydi;
- 4) olingan bilim va ko'nikmalardan turli hayotiy vaziyatlarda o'z ijodiy rejalarini tuzish va tatbiq qilish uchun foydalanadi;
- 5) insonning dunyoni o'zgartirishdagi yaratuvchanlik rolini tushunadi.

Bolaning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning muhim shartlaridan biri - bu iloji boricha, bolani uning eng xilma-xil ijodiy faoliyatini rag'batlantiradigan va unda asta-sekin rivojlanib boradigan shunday muhit va munosabatlar tizimi bilan oldindan o'rab olish kerak. Bola fantaziyasini rivojlantirishning eng boy manbai ertakdir. Bolalarning tasavvurini rivojlantirish uchun tarbiyachilar foydalanishi mumkin bo'lgan ko'plab ertak usullari mavjud. Ular orasida ertakni "buzib ko'rsatish", teskari yo'nalishda ertak o'ylab topish, ertakning davomini o'ylab topish, ertakning oxirini o'zgartirish. Tarbiyachi bolalar bilan ertak yozishi mumkin. O'zbek xalq ertaklarini tanlab olib bolalardan ertak matnini so'rash mumkin. Agar bola eslay olmasa shu ertak asosida ishlangan syujetli rasmlarni ko'rsatiladi.

Bolalar nutqi quyidagi ko'rsatkichlar asosida tahlil qilinadi:

-mustaqil bayon qilish (kattalar yordamisiz)



- matn mazmuning to'liqligi
- matnni bayon qilishda izchillik
- ifoda vositalaridan foydalanish ko'nikmasi
- nutqning ravonligi.

Bolalar o'yini uning mazmuni, xususiyati, tashkil etilishiga ko'ra xilma-xildir³. Bolalar xalq ertaklaridan "Oltin tarvuz", "Zumrad va Qimmat" kabi ertaklarni sahnalashtirishni yaxshi ko'radilar. Badiiy ertakni eslab qolishlari uchun uni qayta qo'yib berish, rasmlar namoyish etish kabi usullardan foydalaniladi. Sahnalashtirish o'yinlari qiziqarli o'tishi uchun kerakli jihozlar tayyorlanishi va unga to'g'ri rahbarlik qilinishi kerak. Bu ishlar albatta tarbiyachi tomonidan bolalar bilan birgalikda amalga oshiriladi. Kattalar tomonidan o'yin ishtirokchilarini to'g'ri baholash muhim ahamiyatga ega. Didaktik o'yinlar va grammatik mazmundagi mashqlar bolalarning tilga oid o'yinlarini, ularning grammatika sohasidagi faolligini rag'batlantirishning muhim vositasidir. Pedagog bolalarga so'z birikmasini o'ylab ko'rish, so'ngra gapda so'zlarni bir-biri bilan to'g'ri bog'lash qobiliyatini shakllantirishi zarur.

Multfilm va ertak qahramonlari syujeti bo'yicha o'yinlar tashkil etish ham bolalarga so'z birikmasini o'ylab ko'rish, so'ngra gapda so'zlarni bir-biri bilan to'g'ri bog'lash qobiliyatini shakllantirishga yordam beruvchi o'yinlar sirasiga kiradi. "Sirk artistlarimiz", "Dizayner", "Aktyor", "Chempionlar", "Biz kosmonavtlar", "Marsga uchamiz", "Vaqt mashinasi". Ishbilarmonlik o'yinlari; "Laboratoriya", Operatsiya xonasi", "Nashriyot", "MCHS", "Turizm markazi" "Bank operatori", "Ofis", "Dizayn studiyasi" kabi real hayot bilan bog'liq bo'lgan o'yinlar, bunday o'yinlarni bolalar bilan birgalikda tashkil etish katta guruh yoshidagi bolalar lug'atining oshishiga,

³ "Maktabgacha ta'lim tarbiyani tashkil etish". N.T.Tosheva. Kamolot nashriyoti. Buxoro. 2022



qolaversa bolalar lugatining ilmiy atamalar bilan boyitishga xizmat qiladi. Interaktiv doska orqali namoyish etilgan joylar – dengiz, tog'lar peyzaji, turli shaharlar, fantastik syujetlar bo'yicha tashkil qilinadigan o'yinlar esa bolalarda fantaziyani rivojlantiribgina qolmay mantiqiy fikrlashni ham rivojlantiradi va aynan psixik bilish jarayonlari ham rivojlanadi. Sunday qilib, o'yin orqali bola tafakkuri va nutqini o'stirish hamda so'zlashishga o'rgatuvchi o'yin texnologiyalaridan foydalanish bolalar nutqi va tafakkurini oshiruvchi omillardan bo'lib hisoblanadi.

Адабиётлар / Список литературы / References

1. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida ta'lim jarayonini rejalashtirish. Shin A.V., Mirziyoyeva Sh.Sh., Grosheva I.V, T.2020
2. O'yin orqali ta'lim olish. Shin A.V., Mirziyoyeva Sh.Sh., Grosheva I.V, T.2020
3. "Ilk qadam" Maktabgacha ta'lim tashkilotlari davlat o'quv dasturi. Toshkent. 2022 "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida" gi davlat standarti – T.2020
4. Z.B.Jalilov Toyirova D. "Sensor tarbiya vositasida bolalar nutqini rivojlantirishning mazmuni" "Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar" Ilmiy-uslubiy jurnal. 2022 y 2-son 163Maktabgacha ta'lim tarbiyani tashkil etish
5. "Maktabgacha ta'lim tarbiyani tashkil etish". N.T.Tosheva.Kamolot nashriyoti. Buxoro.2022
6. N.T.Tosheva, M.H. Mustafoyeva Registration of age and individual characteristics in education as a pedagogical problem. European scholar journal ISSN(E): 2660-5562 Jurnal Impact Faktor: 7.235 Volume 2, Issue 4 Aprril 2021.– B. 85- 90 <https://scholar.google.com/citations?user=jJE1SeoAAAAJ&hl=ru&oi=ao>
7. N.T.Tosheva, A.M.Ibodullayeva Pedagogical bases of training of qualified pedagogical staff. International Engineering Journal For Research & Development: Vol. 6 No. 3 (2021): VOLUME 6 ISSUE 3 SJIF: 7.169 <http://iejrd.com/index.php/%20/article/vie>